

## MILLIY O'YINLARNING MAZMUN-MOHIYATI

Rafiqova Shahzoda  
Ruzimatova Maftuna

Qo'qon Universiteti Andijon filiali Ijtimoiy-gumanitar va pedagogika fakulteti Filologiya va tillarni o'qitish yo'nalishi 25\_01 guruh talabalari:

Xayitboyev Nabijon  
Ilmiy rahbar:

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'zbek xalqining milliy harakatli o'yinlarining kelib chiqish tarixi, ularning qadimiy ildizlari hamda ijtimoiy-madaniy hayotdagi o'rni yoritilgan. Arxeologik topilmalar va xalq og'zaki ijodi asosida o'yinlarning ming yillik tarixga ega ekani asoslab beriladi. Shuningdek, milliy o'yinlarning yosh avlodni jismoniy va ma'naviy tarbiyalashdagi ahamiyati tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** milliy o'yinlar, harakatli o'yinlar, qadimiy an'analar, jismoniy tarbiya, madaniy meros, xalq o'yinlari, tarbiya, urf-odatlar.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается история происхождения узбекских народных подвижных игр, их древние корни и роль в социально-культурной жизни общества. На основе археологических находок и устного народного творчества доказывается, что эти игры имеют многотысячелетнюю историю. Также анализируется значение национальных игр в физическом и духовном воспитании молодого поколения.

**Ключевые слова:** национальные игры, подвижные игры, древние традиции, физическое воспитание, культурное наследие, народные игры, воспитание, обычаи.

### Annotation

This article explores the origin and historical development of Uzbek national traditional games, highlighting their ancient roots and significance in social and cultural life. Based on archaeological findings and oral folklore, it is shown that these games date back several millennia. The article also analyzes the importance of national games in the physical and moral education of the younger generation.

**Key words:** national games, traditional games, ancient traditions, physical education, cultural heritage, folk games, upbringing, customs.

### KIRISH

O'zbek xalq milliy harakatli o'yinlarining kelib chiqish tarixi uzoq o'tmishimiz bilan bog'lanib ketadi.

Afrosiyob, Dalvarzintepa, Sirdaryoning quyi qismlarida (Toshkent viloyati), shuningdek, Xorazm va Qoraqalpog'iston hududlarida o'tkazilgan arxeologik qazilmalar, qidiruv ishlarining natijalari asosida topilgan turli xil buyumlar, ashyolar, guvohlik berishicha, bundan 3-4 ming yillar avval ajdodlarimiz xilma-xil o'yinlar, jismoniy mashqlar bilan mashg'ul bo'lishgan.

Asosiy qism

Yovvoyi hayvonlarni tutish, ov qilish, quvlash, nayza sanchish, ular bilan olishish kabi yana ko'plab murakkab harakatli faoliyatlar tasvirlarda, sopol va metall buyumlarda ifoda etilgan. Shuningdek, Omonqo'ton (Samarqand), Chorvoq atrofidagi (Toshkent viloyati) yassi toshlar, g'orlarda odamlarning ov qilish va hayvonlar bilan jang qilish turli o'yinlar bilan shug'ullanishlari aks ettirilgan. Bunday holatlar Surxon va Qashqar vohasidagi g'orlar, sohillardagi toshlar, Farg'ona vodiysidagi tog'li manzillar (Chotqol tog'lari)da ham ko'p uchraydi.

Qadimgi ajdodlarimiz hozirgi Markaziy Osiyo hududlaridagi barcha xalqlar (qozoq, qirg'iz, turkman, tojik, uyg'ur va boshq.) bilan yaqin aloqadorlikda hayot kechirganlar. Ularning ijtimoiy turmush madaniyati, urf-odatlarini, turli marosimlari bir-biriga juda o'xshash bo'lgan. Shu sababdan ham milliy harakatli o'yinlar o'zaro aralashib ketgan. Masalan, ko'pkari-uloq, poyga, qizquvmoq, otdan ag'darish, otda qilichlashish nayza sanchish,

Dor o'yhash, kurash kabi murakkab hikimkatli o'yinlar Markaziy Osiyoning barcha hududlarida keng tarqalgan. Ijtimoiy-madaniy turmush sharoitidan kelib chiqqan "Quloq cho'zma", "Eshak mindi", "Oq suyak", "Chillik", "Qulpoq tepish", kamondan (yoy) nayza (o'q) otish, «Xo'rozlar jangi», "Mushuk va sichqon", "Bo'ta soldi", "To'qqiz tosh", "Shuvoq", "Bekin- machoq" kabi yuzlab milliy harakatli o'yinlar ham xalqlar, elatlar, urag'-aymoqlar hayotida chuqur o'rin egallagan. Bu o'yinlarning paydo bo'lish tarixi 2-3 ming yildan kam emas.

"Alpomish", "Go'ro'g'li", "Kuntug'mush", "Qirq qiz", "Tohir va Zuhra" kabi xalq og'zaki ijodi durdonalarida tilga olingan ko'plab o'yinlar ham, avvalo, og'izdan og'izga o'tib bizgacha yetib kelgan. Shuningdek, o'g'il uylantirish, qiz chiqarish, beshik, to'ylar, Navro'z, Hosil yig'ish buyramlari (qovun sayili, gul sayili va h.k), hayitlar, gapgashtaklar va juda ko'p marosimlar xalqlardan xalqlarqa o'tib kelgan. Ularning Ko'pkari-uloq, poyga, otdan ag'darish, qiz quvmoq, kurash kabi o'yinlar qatori "Piyoda poyga", "Quloq cho'zma", "Xo'rozlar jangi", "To'qqiz tosh" (qizlar o'yini), "Gardkam" (oshiq o'yinlari) kabi xilma-xil qiziqarli o'yinlar yuqorida sanab o'tilgan marosimlarning tarkibidan o'rin olgan.

Milliy o'yinlar – bu xalqning qadimiy urf-odatlarini, an'analari va hayot tarzini aks ettiruvchi muhim madaniy merosdir. Ular asrlar davomida shakllanib, avlodlardan avlodga o'tib kelmoqda. Milliy o'yinlar nafaqat hordiq chiqarish vositasi, balki yoshlarni tarbiyalash, ularning jismoniy va ma'naviy rivojlanishida katta ahamiyatga ega.

Avvalo, milliy o'yinlar insonni jismonan chiniqtiradi. Masalan, kurash, uloq-ko'pkari yoshlarning sog'lom bo'lib voyaga yetishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bu o'yinlar orqali jasurlik, matonat va raqobatbardoshlik kabi fazilatlar shakllanadi. Ikkinchidan, milliy o'yinlar tarbiyaviy ahamiyatga ega. Ular orqali bolalar va yoshlar o'zaro hurmat, hamjihatlik, do'stlik kabi insoniy qadriyatlarini o'rganadilar. Ko'plab o'yinlar jamoa bo'lib o'ynaladi, bu esa bir-birini qo'llab-quvvatlash va jamoada ishlash ko'nikmasini rivojlantiradi.

Uchinchidan, milliy o'yinlar xalqning tarixiy va madaniy merosini saqlab qolishda muhim rol o'ynaydi. Har bir o'yin o'zida xalqning yashash tarzi, dunyoqarashi va qadriyatlarini mujassam etadi. Shuningdek, milliy o'yinlar yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalaydi. Ular o'z xalqining an'analari bilan, ularga hurmat bilan qarashni o'rganadilar.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, milliy o'yinlar nafaqat ko'ngilochar faoliyat, balki tarbiya, sog'lom turmush tarzi va madaniy merosni asrash vositasidir. Ularni rivojlantirish va yoshlar orasida keng targ'ib qilish muhimdir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi. Milliy o'yinlar va an'analar. – Toshkent, 2018.

Abdullayev A. O'zbek xalq o'yinlari. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2005.

Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.

Jo'rayev M. Xalq og'zaki ijodi va milliy qadriyatlar. – Toshkent, 2012.

Rasulov R. Jismoniy tarbiya va sport asoslari. – Toshkent, 2016.

Internet manbalari:

[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

[www.edu.uz](http://www.edu.uz)